

Zamanova Dilbar Turginovna

Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Sodiqov Qosimjon Pozilovich,

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik

kafedrası professori

QO‘SHMA GAP TIPIDAGI QADIMGI TURKIY MAQOLLAR STILISTIKASI (“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” MATERIALI ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida keltirilgan turkiy maqollarning stilistik xususiyatlari, tuzilishi va ularning mazmuniga bag‘ishlanadi. “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida keltirilgan ayrim qo‘shma gap tipidagi maqollar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar va birikmalar: tilshunos olim, “Devonu lug‘ati-t-turk”, xalq og‘zaki ijodi, maqol, qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gap, muallif gapi, ko‘chirma gap.

Abstract. This article is dedicated to the stylistic structure, types of conjunctions and their content of Turkish proverbs presented in Mahmud Koshgari's "Devonu lugati-t-turk". Some proverbs of the compound sentence type are analyzed in the work "Devonu lugati-t-turk".

Key words: linguist, "Devonu lugati-t-turk", proverb, compound sentence, compound sentence with subordinate clause, author's sentence, extract sentence.

Аннотация. Данная статья посвящена стилистической структуре, типам союзов и их содержанию древнетюркских пословиц, представленных в произведении Махмуда Кашгари «Девону лугати-т-турк». Некоторые пословицы типа сложного предложения анализируются в работе «Девону лугати-т-турк».

Ключевые слова: лингвист, «Девону лугати-т-тюрк», пословица, сложное предложение, сложное предложение с придаточным предложением, авторское предложение, отрывок предложения.

Kirish

Maqol xalqning qirq yil kuzatib bir aytgan so‘zi. Maqolga adabiyotlarda, qo‘llanmalarda turlicha ta‘rif berilgan. O‘zbek tilining izohli lu‘g‘atida quyidagicha ta‘rif berilgan.” Maqol [مقال - maqola, kichik asar, so‘z, nutq] hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihath mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora, gap [1, 569]. Maqolda xalqning falsafiy qarashlari, erkin fikri ixcham, lo‘nda va badiiy shaklda aks etadi. Ularni xalq falsafiy-badiiy tafakkurining gultoji, desa bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

Maqollarda badiiylik kuchli. Jumla qurilishi va uslubiga ko‘ra ular she‘riy asarga tenglashadi [2, 23]. Maqollar xaiq og‘zaki turining eng qadimgi turidir. Maqol o‘zining ixchamligi, keng ma‘noni ifodalovchi dono gaplari bilan u kishilarga tanbeh beradi, ogohlantiradi, mehnatini ulug‘laydi, tanqid qiladi, kamchiliklarini hajv ostiga olib to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Qadimgi turklar «maqol»ni saw, og‘ut, qumaru so‘z degan. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asari arab tilida yozilgani sababli asardagi maqollarni muallif masal deb atagan. Chunki arablar «maqol»ni masal deydi [3, 23]. Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folklorshunoslar tomonidan ko‘p marotaba o‘rganilgan. Xususan, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariy o‘zining

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarida qadimgi turkiy xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar faqat o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya‘ni, Yuqori Chindan tortib, Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan urug‘, qabila, xalqlar, ularning tillari, o‘sha davr maqollari to‘g‘risida ham ma‘lumot beruvchi noyob filologik asardir. Demak, o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari maqollarning badiiy shakli, ularning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham maqollar mustaqil janr sifatida estetikaning shakl va mazmun birligi qonunini namoyish etishda juda ham qulaydir. Maqollarda badiiy tasviriy vositalarda qisqalikka intilish maqollarga katta estetik qudrat bag‘ishlaydi. Mana shu jihatdan qaraganda, maqollarning tuzilishi ham o‘ziga xosdir.

Masalan, “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridan o‘rin olgan maqollar gap qurilishiga ko‘ra sodda gap va qo‘shma gap shaklida berilgan. “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridan o‘rin olgan maqollarning katta bir qismini qo‘shma gaplar tashkil qiladi.

Qo‘shma gaplar ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmuniy, grammatik, leksik, intonatsion vositalar bilan birikuvidan tuzilgan bo‘ladi. Qo‘shma gaplar ko‘pincha bog‘lovchisiz qo‘llansa ham, unda fikr ravonligi va mantiqiy izchillik to‘la ta‘minlangan bo‘ladi. Shuning uchun ham umumlashtirilgan fikrni ifodalab, ibrat uchun qo‘llanadigan maqol, hikmatli so‘zlarning deyarli hammasi bog‘lovchisiz qo‘shma gap tipida bo‘ladi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar mazmun munosabatiga ko‘ra payt, qiyoslash, sabab-natija, izohlash kabi turlarga bo‘lib o‘rganiladi. “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridan olingan quyidagi maqollarga nazar tashlaymiz. O‘g‘lan i‘si i‘sh bolmas, o‘g‘laq m‘n‘uzi sap bolmas [4, 372]. Ma‘nosi: "Bolalar ishini ish deb bo‘lmaydi, echki shoxi yaxshi sop bo‘lmaydi" (DLT,372).

Maqolning birinchi gapidagi O‘g‘lan i‘si, ya‘ni bolaning qiladigan ishi va ikkinchi gapdagi o‘g‘laq m‘n‘uzi ,ya‘ni uloqning shoxi birikmasiga qiyoslangan. Maqoldan shu xulosa kelib chiqadiki, bolaning qiladigan ishi, yumushi puxta bo‘lmaganidek, uloqning ham shoxi mo‘rt bo‘ladi, sogga yaramaydi” degan ma‘no kelib chiqadi.

Yana bir maqolda Qal sawi qalmas, qa‘g‘il ba‘gi yazilmas. Ma‘nosi: “Keksalarning so‘zi, nasihati bekor ketmaydi, tolning ho‘l novdasining bog‘i yechilmaydi" (DLT,164). Maqoldan shunday mazmun anglashiladi. Keksalarning so‘zi, nasihati bekor ketmaydi, chunki ular yillar davomida tajribasidan, boshidan o‘tgan yoki hayoti davomida kuzatgan bo‘ladi, Tolning ho‘l novdasidan tugulgan tugun ham xuddi keksalarning nasihatidek mustahkam bo‘lgani uchun, yichilishi qiyin bo‘ladi.

Mana yana misollar: Ko‘p s‘ug‘utka qu‘sh qonar, ko‘rklug‘ kisika‘ so‘z kelir. Ma‘nosi: Sershox daraxtga qush qo‘nadi, yaxshi kishiga maqtov keladi.

Yig‘ach uch‘na yel tegir, ko‘rklug‘ kisika‘ so‘z kelir. Buning ma‘nosi shunday: Daraxt uchiga shamol tegadi, yumshoq odamga so‘z etadi.

Tunla yurup, kunduz sewnur, Kicigda ewlanip, ulgadu sewnur. Ma‘nosi: Kech bilan yurib kunduz sevinadi, chunki u yo‘lni ko‘rmasdan bosadi. Yoshlikda uylangan kishi qariganda sevinadi, chunki bolalari unga yordamchi bo‘ladilar, u umrining so‘nggini rohatda o‘tkazadi (DLT,353). Mazkur maqol ikki mustaqil qo‘shma gapdan tashkil topgan. Birinchisi ikkinchisining ma‘nosini to‘ldirib kelmoqda. Struktur jihatidan ularning qurilishi bir xil. Bu o‘rinda sintaktik parallelizmni ko‘rish mumkin. Maqolda ikki hodisa o‘zaro taqqoslanmoqda: birinchisi tun bilan kun; ikkinchisi esa yoshlik va keksalik. Inson biror safarga otlar ekan, ayniqsa u sahrodan ketayotgan bo‘lsa, tunda yo‘l bosgani yaxshi. Chunki kunduz jaziramada yurish juda qiyin kechadi. Shuning uchun tun bo‘lsa-da, yo‘l bosish ijobiy hisoblanadi. Endi maqolning ikkinchi jumlasida yoshligida uylangan kishi keksayganda suyunishi aytilmoqda. Koshg‘ariyning ta‘kidlashicha, yosh uylangan kishining o‘g‘illari yoniga kiradi, otasiga quvvat bo‘ladi, kech uylangan kishi esa ko‘proq qiynaladi. Maqoldagi o‘zaro zidlikni tun-kun va yoshlik-qarilik so‘zlari ta‘minlamoqda.

Yana bir maqolda shunday: Kenqashlig bilig yora’sur, kenassiz bilig opra’sur. Ma‘nosi: Maslahatli ish borgan sari yaxshilanib boradi, maslahatsiz ish borgan sari buzilishga yuz tutadi.

Mazkur maqolda ikki hodisa bir-biriga solishtirilmoqda. Ma'no ham shundan kelib chiqadi. Ushbu maqolning hozirgi kundagi ko'inishi bir sostavli gap shaklida qo'llanadi: Kengashli to'y tarqamas. Maqolning ikkinchi «Keng to'n to'zimaydi» qismi bugunga kelib, nazarimizda o'z ahamiyatini yo'qotgan. Shu bilan birga, «kengashli ish» o'rniga, «kengashli to'y» iborasi qo'llanmoqda. «Ish»ning «to'y»ga o'zgartirish ham bejiz emas, inson hayoti davomida «to'y» muhim o'rin egallagan bo'lsin, uni chiroyli, go'zal qilib o'tkazish uni kengashgan holda, maslahat bilan amalga oshirish nazarda tutiladi.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi tire (-) tinish belgisi qo'yilganda, qo'shma gapni tashkil qilgan sodda gaplar orasida o'xshatish, zidlash, shart munosabati bo'lishini bilamiz. Yer basruqi - tağ, bodun basruqi - beg. «Yerning og'irligi tog' bilan, xalqning og'irligi beglar bilan». Koshg'ariyning urg'ulashicha, bu maqol «Yer tog' bilan tinch turadi, xalq beklar bilan tinch turadi, chunki ular yo'lga soladilar» degan ma'noda qo'llanadi (DLT,185.) Yana bir maqolda shunday: Yazmas atim-yağmur, yayilmas bilgä - yayqu. Ma'nosi: "Yanglishmaydigan mergan yomg'irdir, chunki yomgirning mo'ljal o'rni nishonga olgan joyi butun yer yuzidir; yer yuzi esa juda kengdir, bunday keng joyga otilgan narsa xato ketmaydi. Qayergadir bir yerga tegadi. Har doim to'g'ri aytiladigan bilag'on aks-sadodir. Chunki, u sen nima desang, xuddi shunday qaytaradi. Bu maqolda ikki sodda gap orasida o'xshatish munosabati yuzaga chiqyapti (DLT,452).

Ba'zan bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplarning biror bo'lagi tushirilgan bo'ladi. Bunday hol ko'proq maqollarda kuzatiladi. Sababi, maqollarda ana shu tushirilgan bo'lakni mazmunan ilg'ab olishning imkoni bor. Mana misoli: Quş qanatin, er atin. «Qush qanoti bilan, er oti bilan» (DLT,28). Ushbu qo'shma gapda ikkala gapning kesimi, ya'ni küçlüg erür («kuchlidir») so'zi tushirilgan. Maqolning to'liq tiklangan shakli shunday bo'ladi: Quş qanatin (küçlüg erür), er atin (küçlüg erür).

Qul - yağı, it böri. Ma'nosi: Qulyov, u ko'lidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib, qochishning payida bo'ladi. It xam xonadon uchun bo'ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o'zini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xo'jayiniga oz vafo kilishini bildirish uchun aytilgan. Ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar bosh va ergash gapdan tuziladi. Ergash gap bosh gapga ergashib, uni to'lig'icha yoki biror bo'lagini to'ldirib, izohlab, aniqlashtirib keladi. Masalan, Awčë neča al bilsä, adığ anča yol bilir. - «Ovchi ov hiylalarini qanchalik bilsa, ayiq ham qochish yo'llarini shunchalik biladi». Bu maqolda ikkita soda gap bir-biri bilan qiyoslanayapti, sodda gaplar -sa shart mayli qo'shimchasi bilan bog'langan (DLT,39). Ağilda oğlaq tuğsa, ariqda otı ünär - Og'ilda buzoq tug'ilsa, ariqda o'ti unadi. Bu ham ergashgan qo'shma gap shaklidagi maqol bo'lib, payt ma'nosi ifodalangan. Ya'ni, og'ilda buzoq tug'ilgan paytda, ariqda uning risqi ham unadi ma'nosida. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday shart-sharoitda ro'y berishini ko'rsatadi [5, 56].

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga -sa qo'shimchasi orqali bog'langanda, ergash gapning kesimi ko'pincha fel-kesim shaklida bo'ladi va ergash gapdagi voqea yuzaga kelishi bilan bosh gapdagi harakat-voqea yuzaga chiqadi. Buni quyidagi maqolda ko'rib chiqamiz: Ay tolun bolsa, eligin imlämäs. Bu maqolda bosh gap eligin imlämäs, ergash gap esa Ay tolun bolsa dir. Ergash bosh gapga shart felining -sä qo'shimchasini olgan holda ergash gapning kesimi vazifasida kelgan. Bosh gapning kesimi esa hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasini olgan. Ko'pincha maqollarda hozirgi-kelasi zamon ifodalanadi, chunki u ish-harakatning davomiyligini bildirib, shaxsi umumga qaratilgan bo'ladi. Bu maqolning ma'nosi shunday: "Oy to'lin bo'lsa, uni barmoq bilan imlanmaydi". Bu maqol mashhur bo'lgan narsa to'g'risida aytiladi.

Yana bir misol: Alim keč qalsa, adaqlanur. Ma'nosi: "Olinadigan narsa qarzdorda uzoq qolib ketsa, oyoq chiqaradi. Ya'ni, qarz bergan kishi qarzini undirish uchun uning ketidan yuradi (DLT,122). Alim keč qalsa ergash gap bo'lib, adaqlanur bosh gap bo'lib kelgan. Yana bir maqolda: Közdün yirasa, könüldän yemä yirar. "Do'stlar ko'zdan uzoqlashsa, ko'ngildan ham uzoq bo'ladi". Ya'ni, mehr ko'zda ekanligi, qanchalik do'stlar bilan tez-tez ko'rishib turilsa, shunca ko'ngil yaqin bo'lishi, aksincha bo'lganda esa ko'ngildan uzoqlashishi haqida gap boradi. Bu maqolda ikki sodda gap bir-biriga qiyoslanayapti (DLT,447).

Yana maqollarga nazar tashlaymiz: Uluğni uluğlasa, qut bulur. Ma'nosi: "(Kishi) qariyalarning yoshini hurmatlasa, baxt topadi" (uluğlar, uluğlamaq). Uluğni uluğlasa ergash gap, qut bulur bosh gap. Bu maqolda bosh va ergash gap orasida shart munosabati yuzaga chiqyapti ya'ni agar kim yoshi ulug'larni hurmat qilsa, baxtli bo'ladi. Yağini ašaqlasa, bašqa čiqar. Ma'nosi: "Yovni kichik desa, boshga chiqadi" Yağini ašaqlasa ergash gap, bašqa čiqar bosh gapdir. Mazmuni: Ehtiyot bo'l, yovni kichik sanama, demoqchi bo'ladilar.

Ergashgan qo'shma gap holiday maqollar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida bir qancha, Keling yana bir-ikkita misol ko'ramiz.

Kim kūr bolsa, küwāz bolur. Ma'nosi: "Dovyurak kishi magrur bo'ladi". Kül ürgünčä, köz ürsä yig. M a'nosi: "Kul puflaguncha, cho'g' puflagan yaxshi". Bu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga urinuvchilarga qarata aytilgan.

Kökkä suđsa, yūzkä tūšür. Ma'nosi: "Kimki ko'kka tupursa, yuziga tushadi". Bu maqol martabasi ulug' odamlar bilan yovlashuvchi kishiga nisbatan aytiladi. Ya'ni dushmanlik va uning jafosi tupuk yuziga tushgandek, o'zingga qaytadi, demakdir. Yuqoridagi maqollarda ergash gapning kesimi fe'l-kesim bo'lib, shart fe'li qo'shimchasini olgan holda shart ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qilyapti (DLT,35).

"Devonu lug'ati-t-turk" asarida murakkab qo'shma gap shaklidagi maqollarni ham ko'rishimiz mumkin. Murakkab qo'shma gap uch va undan ortiq sodda gapning birikuvidan tuzilgan bo'ladi. Uning tarkibidagi gaplar bog'langan qo'shma gap, bir necha ergash gapli qo'shma gap bo'lishi yoki unisi ham, bunisi ham aralash holda uchrashi mumkin. Ba'zan maqollar ham ko'chirma gapli jumalardan tuzilgan bo'ladi. Bunda so'zlovchi gapi hozirgi-kelasi zamon shaklida beriladi. Mana misol: Ešič ayur: "Tübüm altun". Qamič ayur: "Men qayda-men/qanda-men?" - Qozon ayur: "Tubim oltin". Cho'mich ayur: "Men qaydaman". Ma'nosi: Qozon: "Tubim oltin", - deb maqtansa, cho'mich: "Unday bo'lsa, men qaydaman?" deydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asarida kelgan maqollar turkiy xalqlarning ming yillar osha shakllangan, chuqur ma'no-mazmunga ega, xalq badiiy-falsafiy tafakkurining namunasi sifatida shakllangan. Qadimgi maqollarning ba'zisi ma'no jihatdan o'zgargan holda hozirgi vaqtda ham ishlatiladi. Bu esa maqollardagi mazmunnig yashovchanligini oshiradi.

Qadimgi turkiy maqollarning tuzilishi va bugungi kunga yetib kelishida ham ularning xalqchilligi alohida ahamiyatga ega. Maqollarda xalqning bola tarbiyasidagi o'y-qarashlari, hayotiy voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati yotadi. Undagi har bir fikr, xalqning milliy-madaniy mentaliteti, zamon va makon bilan bog'liq dunyoni anglashdagi qarashlari mujassamlashgan asarlar namunasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. E-M. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopidiyasi. 2006.
2. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. -T., 2021.
3. O'sha kitob. -B. 23.
4. DLT - Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa yui, 2017.
5. Abdurahmonov.F, Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T.: 1982.